

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
XORIJIY SHARQ MAMLAKATLARI ADABIYOTI KAFEDRASI

REFERAT

MAVZU:

IMOM ISMOIL AL BUXORIY

Bajardi: Jabborova Hilola. 4-kurs.
Tekshirdi: dots.Ziyovuddinova M.Z.

Toshkent 2010

IMOM ISMOIL AL BUXORIY

Abu Abdulloh Muhammad Ismoil ibn Ibrohim ibn Muqoyra ibn Bardizba al-Buxoriy hijratning 194 yili Shavvol oyini 13-si, Juma kunida Buxoroda tavallud topdilar. U kishi etim bo'lib o'sdilar. Yoshlari 9 ga etganda Qur'oni Karimni to'laligicha yod oldilar. Hadis eshitishlikni xush ko'rardilar, voyaga etgunga qadar 10000 dan ziyod hadisni yod bilardilar.

Homid ibn Ismoil aytadilar: «Buxoriy bilan dars olardim. Biz har bir hadisni yozib borardik. Buxoriy esa yozmas edilar. Biz ey Muhammad ibn Ismoil, nega yozmaysiz, deb so'rasak, u kishi: «Qani, yozgan narsalaringni ko'rsatinglar-chi», dedilar. Biz ko'rsatganimizda, biz yozgan hadislarni va unga yana 15000 hadis ziyoda qilib yoddan aytib berdilar».

Imom Buxoriyning ko'zlari yoshlik paytlarida ojiz bo'lib, ko'rmay qoladi. Onalari Ibrohim payo'ambarni tush ko'radilar. U kishi: «Ey ayol, Alloh taolo k'p duoning sababli qo'lingga ko'zini qaytarib beradi», deydilar. Bir necha kundan so'ng Imom Buxoriyning ko'zlari yana ko'ra boshlaydi. Imom 18 yoshga to'lganlarida onalari va akalari bilan haj qilish uchun Makkai Mukarramaga keladilar. Haj amallarining bajarib bo'lgach, onalari va akalarini Buxoroga jo'natib, o'zlari hadis jamlash uchun shu erda qoladilar.

Imom Buxoriydan: «Nega bu ishga qo'l urdingiz! deb, so'rashganda, shundoq javob bergan ekanlar: «Bir kuni Rasulullohni tush ko'rdim, qo'limda elpi'ich, u kishini elpir edim. Bu tushimni ba'zi ta'bir aytuvchilarga aytsam: «Sen Rasulullohdan yolo'onlarni elpib turasan»-deyishdi. Imom Makkadagi Abdulloh ibn Yazid al-Muqriy ismli kishidan dars oladi. So'ng Xuroson, Bag'dod, Hijoz, Basra, Kufa, Shom, Misr kabi joylardagi kishilardan hadis to'playdilar. Imom Buxoriy 600000 hadis to'plab, shundan 100000 sahih,

200000 zaif hadisni yodlaydilar. Bu hadislarini to'plashda 90000dan ziyod kishining huzurida b'lib chiqadilar. Marajja ibn Raja' aytadilar: «Imom Buxoriy Allohning erda yuruvchi *mojizasi edi*». Muhammad ibn Yusuf aytadilar: «Bir kuni Rasulullohni tush ko'ribman. U kishi: «Qaerga ketayap- san?», deb so'radilar. Men, Muhammad ibn Ismoilning huzuriga, deb javob bersam: «Unday bo'lsa mendan salom aytib qo'y», dedilar.

Imom Ahmad ibn Hanbal aytadilar: «Hadis yodlash to'rt kishida tamom bo'ldi: Abu Zar'ata ar-Roziy, Ismoil al-Buxoriy, Imom Dorimiy, Hasan ibn Shujja al-Balhiy». Imom Buxoriyning ustozlaridan biri Abdulloh ibn Xolid al-Omiriy: «Buxoriyning ko'krigidagi tuki bo'lishiga rozi edim»-deganlar.

Al-Firabiy aytadilar: «Bir kuni Buxoriyni tush ko'rdim. U kishi Rasulullohning orqalaridan yurar edilar. Buxoriy Rasulullohning oyoq izlariga oyog'ini qo'yar edilar». Hadis olimlaridan bo'lmish Muslim har qachon Buxoriyni huzurlariga kirsalar: «Ey hadislar tabibi! Ey hadis ulamolarining sayyidi! Ijzat bersangiz oyog'ingizni o'psam»-der ekanlar. Buxoriy o'zlarining «Jome' Sahih» kitoblarini 16 yilda yozib tugatadilar. «Qachonki mana shu kitobimga biror hadis kiritsam, g'usl qilib ikki rak'at namoz o'qirdim», deb aytadilar. Ulamolar bu kitobni Qur'on va Rasulullohning kitoblaridan keyingi eng sahih kitob deb bilishar edi. Muhammad ibn Yusuf aytadilar: «Rasulullohni tush ko'ribman, menga: «Qachongacha fiqh o'qiysan? Mening kitobimni o'qisang bo'lmaydimi?»-dedilar. Men: «Sizning kitobingiz qaysi», deb so'raganimda: «Muhammad ibn Ismoilning kitoblari - meni kitobimdir», dedilar.

O'sha paytdagi ulamolardan bo'lmish imom al- Hokim aytadilar: «Bu dunyoni ostin-ustin qilib yuborilsa ham, Buxoriy kabi hadis biluvchi va uni yodlovchi odam topilmaydi». Imom Buxoriyning «Sahih» kitoblariga 82ta sharh yozilgan. Shulardan eng mashhurlari Asqaloniyni «Fath ul-Boriy»,

Badruddin al-Ayniyning «Umdat al-Qoriy», al-Karamiyning «Kavkab ad-Daroriy», Qastaloniyni «Irshod as-Soriy», Imom Suyutiyni «At-Tavshih», Muhammad Anvar Kashmiriyning «Fayzul-Boriy» kitoblari. Imom Buxoriy «Al-Jome' as-Sahih»dan tashqari yana bir qancha kitoblarning muallifi hamdir. «Adab ul-mufrad», «Birr ul-volidayni», «Tarix ul-kabir», «Musnad ul-kabir», «Kitobu asmoi sahoba», «Tafsir ul-kabir», «Xolqu af oli ibod», «Sulosiyatul Buxoriy», «Hadis un-Nabaviy», «Tarix us-saif», «Zuafo us-saif» va boshqa kitoblari shular jumlasidandir.

Imom Buxoriyning ustozlari ko'p bo'lgan, u kishi Ali ibn al-Madiniy, Ahmad ibn Hanbal, Ishoq ibn Rohavayh, Abu Abdulloh Muhammad ibn Jarir al-Musannadiy, Muhammad ibn Salom va boshqalardan dars olganlar. Bundan tashqari Imom Buxoriy Hamad ibn Shokir, Ibrohim ibn Muakkal, Tohir ibn Muhammad, Abu Talha Mansur, Muslim, Termiziy, Nasaiy, Abu Bakr ibn Ishoq, Abu Fazl Ahmad ibn Salma, Abu Bakr ibn Abud Dunyo, Husayn ibn Muhammad al-Qaboniy, Sahl ibn Shadiveyh al-Buxoriy va boshqa shogirdlarga ustozlik qilganlar. Imom Buxoriy ko'p shaharlarda umr kechiradilar. Keyinchalik o'z ona yurtlarini so'zib, Buxoroga qaytib keladilar. Imom Buxoriy Buxoro ahli juda yaxshi kutib oladi, bu erga kelgan kunlari boshlaridan oltin sochishadi.

Agar Imom Buxoriy masjidida hadis aytib dars beradigan bo'lsalar, masjid to'lib-toshar, odamlar soni 10 ming, ba'zan 20 mingdan oshib ketar edi. Har zamonda bo'lgani kabi malomatchilar, hasadgo'ylar, o'iybatchilar o'sha vaqtdagi Buxoro amiri Xolid ibn Ahmad huzuriga kelib: «Buxoriy xalqni o'ziga og'dirib oldi, tezroq bir chora ko'rmasangiz xalq sizdan yuz o'giradi», deb aytishdi. Xolid bu ishda o'z yaqinlariga maslahat soladi. Ular: «Buxoriy juda mashhur odam, unga yomonlik qilinsa, xalq qo'zg'olon ko'taradi, yaxshisi uni xalqdan ajratib olish kerak», deb maslahat beradilar. Xolid Buxoriyga odam yuborib, saroyga kelib amir va amaldorlarning farzandlariga dars berishga taklif

etadi. Buxoriy bundan bosh tortadilar. Xolid yana elchi yuborib, kitoblari bilan tezda Amir huzuriga kelishini buyuradi. Buxoriy esa: «Ilmgga kelinadi, ilm hech qachon bormaydi»-deb javob beradilar. Bu gaplarga chiday olmagan amir Buxoriyga bu erdan tezlik bilan chiqib ketishini buyuradi. Buxoriy amiming ziyoniga duo qilib, Samarqandga qarab yo'l oladi. Samarqanddan ikki chaqirim uzoqlikdagi Xartang qishloo'idagi qarindoshlarinikiga kelib tushadilar. Bu erda uch kun turadilar. Ana shu kuni kechasigi namozni o'qib bo'lgach: «Ey Robbim!» Er keng bo'lishiga qaramay, menga tor bo'lib ketdi. Meni o'z huzuringga chaqirgin», deb duo qiladilar. G'olib ibn Jibroil aytadilar: «Samarqand ahli Buxoriyning huzurlariga kelib ana shu erda yashashlarini iltimos qilishdi. Buxoriy bunga rozi bo'lib, safarga otlandilar. Endi otlari tomon 4-5 qadam bosganlarida birdan holdan toyib, yiqiladigan darajaga kelib qoldilar. Imomni uyga olib kirishdi va u kishi ko'p o'tmay vafot etdilar. Ertasiga janozalari o'qilib, qabrga qo'yildi. Qabrlaridan bir qancha kun xush bo'y mushk hidi taralib turdi. Imom Buxoriy o'limlarining xabari, 'sha paytdagi xalifa Ibn Tohirga etib borgandi. Xalifa amir Xolid ibn Ahmadning yuziga qora surib, eshakka teskari o'tkazib, shahar aylantirishga, so'ng cho'lga qo'yib yuborishga amr qildi. Cho'lda uni yirtqich hayvonlar eb ketdi. Alloh johil amirni shu dunyoning o'zidayoq jazolab q'yaqoldi.

"Jo 'me as-sahih "asaridan namunalar.

Urva ibn Zubayr Oisha onamizdan bunday deb naql qiladilar:

"Dastlabki vahiy Rasululloh sallolohu alayhi va sallamga uyqularida sof tush tarzida nozil bo'lgan erdi. Keyin, tong shafao'i yanglig' nurdan o'zgasi tushlariga kirmay qo'ydi. Shundan so'ng, Rasululloh yolg'izlikni xushlaydigan bo'lib qoldilar. Oilalarini tark etib, yolg'iz o'zlari Hiro togg'idagi g'orda qatorasiga bir necha tun toat-ibodat qilib chiqar erdilar. Shu boisdan ham o'zlari birlan yegulik olib chiqib ketar erdilar. Yeguliklari tugagach, Xadichaning huzurlariga kelib, yana taom olib, yana toqqa qaytar erdilar. Haqiqatga

yetishgunlariga qadar shunday qilaverdilar. Bir kuni odatdagidek Hirodagi g'orda ibodat birlan mashg'ul bo'lib o'ltirganlarida xuzurlariga bir farishta kelib: "Iqra'(o'qi)!", -deb aytdi. " o'qiy olmasman, dedim, - deydilar Rasululloh sallolohu alayhi va sallam, -shu payt ul zot meni b o' g'a boshladi, hatto men hirillab qoldim. Keyin meni q o'yib yubordi-da, yana: " o'qi!" -dedi. Men " o'qiy olmasman", - deb erdim, ul meni ikkinchi bor b o' g'ishga tutindi, s o'ng yana q o'yib yubordi-da: " o'qi!" - dedi. Men ersam: " o'qiy olmasman", - deb javob qildim. Ul uchinchi marta b o' g'a boshladi, men ta g'in hirillab qoldim. Keyin, q o'yib yubordi-da: "Seni yaratgan Rabbingning, insonni alaq(lahta qon)dan yaratgan Parvardigoringning ismi ila o'qi, o'qi! Rabbing eng sahovatlidir!" - dedi". Shundan s o'ng Rasululloh sallolohu alayhi va sallam qo'rquvdan a'zoyi-badanlari titrab-qaqshab Xadicha binti Huvaylidning huzuriga keldilar-da: "Meni o'rab(yashirib) q o'yinglar, meni o'rab q o'yinglar!" - dedilar. Ular Janob Rasulullohni q o'rquvlari tarqalgunga qadar o'rab q o'yishdi. S o'ng, Xadishaga b o'lgan voqeani aytib berdilar-da: "Men qizimdan xavotir oldim (ya'ni,"Menga biron narsa b o'lib qolmasaydi" - deb qo'rqdim)", - dedilar. Xadicha (r.a.) bunday dedilar: "Y o'q, mutlaqo unday emas. Xudo haqqi, Olloh taolo sizni hech vaqt sharmanda qilma g'ay, siz qarindosh-uru g'chilik munosabatlarini y o'lga q o'y g'aysiz, o g'irni yengil qil g'aysiz, y o'qsillarni to'ydir g'aysiz, mehmon kut g'aysiz va haqiqiy ezguliklarning r g'yobga chiqishiga sa'yu imdod ayla g'aysiz".

S o'ng, Xadicha onamiz Janob Rasululloh o'zlarining amakivachchalari b o'lmish Varaqa ibn Navfal inb Asad ibn Abdulluzo huzuriga olib bordilar. Ul kishi johiliya davrida nasroniy dinini qabul qilgan erdilar. Ibroniycha xat-savodlari b o'lib, Injildan Olloh taolo istagancha ibroniycha matnlarni k o'chirib yozar erdilar. o'zlari keksa va k o'zlari ojiz erdi. Xadicha (r.a) Varaqaga:"Ey amakimning o' g'li, birodaringizning gaplariga quloq osingiz!" - dedilar. Varaqa: "Ey birodarimning o' g'li, nimalarni k o'rdingiz, aytingiz!" -

dedi. Janob Rasululloh nimaiki k o'rgan b o'lsalar, birma-bir ayon ayladilar. Varaqa Janob Rasulullohga qarata: "Bu, Olloh taolo Muso alayhissalomga yuborgan o'sha Hazrat Jabroilning o'zginasidir. Koshki erdi, men yosh b o'lsamu, (islom) diniga da'vat qilmoqda ishirok etsam, sizni qavmingiz o'z orasidan quvib chiqargan vaqtda men hayot b o'lsam!" -deb aytdi.

Rasululloh sallolohu alayhi va sallam hayrotomuz: "Mening qavmim o'z orasidan hayda g'aymi?" - dedilar. Varaqa: "Ha, shunday. Bu vaqtga qadar biror kimsa menga siz kabi habar keltirmagan erdi, garchi keltirgan ersada, men uni qaytarib yuborgan erdim. Sizga Olloh taolo muyassar et g'usi kunlar menga ham nasib etsa, sizga amaliy madad ber g'umdir!" - dedi. Lekin Varaqa k o'p o'tmay dor ul-baqoga rihlat etdi. Janob Rasulullohga bir muncha vaqt vahiy kelmay q o'ydi. Ibn Shihob (r.a) rivoyat qiladilarki, Jobir ibn Abdulloh al-Ansoriy Rasulullohga vahiy kelgan vaqt haqida bunday degan erkanlar: "Men (ya'ni, Janob Rasululloh) y o'lda ketayotgan erdim, nogahon osmondin kelayotgan bir ovoz qulo g'imga chalindi. Nigohimni yuqoriga qaratgan erdim, Hiro g'orida huzurimga kelgan o'shal farishta osmon ila yer orali g'inda kursi uzra □ltiribdir. Men undan q o'rqib (uyga) qaytib keldim-da: "Meni (bir narsa birlan) o'rab q o'yingiz, o'rab q o'yingiz!" -dedim. Shu asnoda Olloh taolo oyat nozil qildi ("Ey burkanib olgan banda, o'rmingdan tur g'il, ogah b o'l g'il.. "dan "... azob" degan s o'zigacha").

Ushbu hadisni Abdulloh ibn Yusuf va Abu Solih ham rivoyat qilishgan. Hilol ibn Raddod uni Zuhriydan eshitib davom ettirgan. Yunus va Ma'mar ersa, uning kamchiliklarini t o'ldirgandir.

Sa'id ibn Jubayr aytdilarki,Ibn Abbos Olloh taoloning"(Jabroil) Qur'on o'qiganida sen takrorlashga oshiqma!" degan oyati haqida bunday deb rivoyat qilgan erkan: "Nabiysallolohu alayhi va sallam nozil b o'lgan oyatning mazmunini tezda tushunib olishga harakat qilardilar. Shu sababdan lablarini

qimirlatar erdilar". Ibn Abbos yana bunday dedilar: "Men lablarimni, Janob Rasululloh qanday qimirlatgan b o'lsalar, shunday qimirlatib k o'rsatayapman", - dedi. Olloh taolo: "(Jabroil) Qur'on o'qiganda sen shoshib takror qilma! Qur'onni qalbingga va xotirangga jo qilmoq, istagan vaqtingda uni o'qishga seni qodir etmoq bizning b o'ynimizdadir" va "Agar biz uni (Jabroil qiroat orqali) o'qisak, sen unga quloq sol!" degan oyat nozil qildi. Shundan s o'ng, Janob Rasululloh agar Jabroil vahiy keltirsa, avval unga quloq solib, ketganidan keyin ersa, u o'qigandek takrorlab o'qir erdilar".

Ibn Abbos bunday deb rivoyat qiladilar: " Rasululloh sallolohu alayhi va sallam barcha insonlar ichida eng sahovatli zot erdilar. Ramazonda Hazrat Jabroil birlan uchrashganlarida sahovatlari yanada ortar edi. Hazrat Jabroil Janob Rasululloh birlan har kecha uchrashib, Qur'onni muzokara qilar erdilar. Hazrat Rasululloh xayrli ishda kuchli shamoldan ham tez erdilar ". o' g'